Application of Artificial Intelligence-Based Learning Activities for Developing Critical Thinking in Teacher Training	1242
Masharipova Nargiza Otakhonovna, Xudayberganova Madinabonu Quدراتovna	
Yuqori malakali darvozabonlarning jismoniy tayyorgarligini oshirish uslubiyati.....	1246
Maxmudov Azamjon Muxtorovich	
Multimediali elektron vositalar asosida axborot texnologiyalari fanini o'qitishda STEAM ta'lim metodlaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari.....	1250
Patidinova Dildoraxon Salimjon qizi, Yo'Ichiyev Shaxriyor Xusanovich	
Ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini bilishga qiziqtirish	1254
Pirniyazova Sholpan Oteniyazovna	
Texnologiya fani o'qituvchilarining dars samaradorligini oshirish metodikasi	1259
Raxmatov A'zam Ashur o'g'li	
O'quvchilarning shaxsiy karyerasini rejalashtirish ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	1262
Raxmatova Sevara Abdulloyevna, Sharapova Hilola Dusham qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion va kreativ faoliyatlarni tashkil etishda tarbiyachi pedagogik mahoratining o'rni	1268
Sattorova Maftuna Abdug'affor qizi	
Interactive Methods and Activities in Teaching Foreign Languages	1272
Sayfutdinova Nilufarxon Soyibjonovna	
Nutq o'stirishda yozma ishlardan foydalanishga oid pedagogik shart-sharoitlar	1276
Sharipova Sarvinoz Sayid qizi	
Talabalarda integrativ yondashuv asosida muloqot madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari.....	1280
Usmonova Mohizoda Avazjon qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning refleksiv qobiliyatlarini rivojlanishda oilaning ijtimoiy faoliyati	1283
Xomidova Dilorom Abduraxmonovna	
Tarbiya jarayonida o'quvchilarda vatanparvarlik tushunchasini shakllantirish metodikasi.....	1286
Yavkochdiyeva Dilafuz Egamqulovna	
Bo'lajak pedagoglarning ilmiy-falsafiy dunyoqarashini rivojlantirish samaradorligi	1289
Yuldasheva Xusnidaxon Jumanazar qizi	
Идейно-художественные особенности публицистики Ш. Рашидова и их влияние на формирование диалога культур Узбекистана и России	1293
Сярова Айнура Ибодуллаевна	
Axborot texnologiyalari fanida talabalarining bilish mustaqilligini rivojlantirishda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi.....	1296
Kilichev Nurulla Abbosovich	
Bolaning nutqiy rivojida oilaviy va ta'lim muhitining ahamiyati.....	1300
Toshmurodova Xalima Allaberdiyevna	
Psixologik va pedagogik nuqtai nazardan sanogen va patogen tafakkur mexanizmlari	1303
Abdushukurova Mushtariy	
Zamonaviy o'qituvchi nutqiga qo'yiladigan talablar va nutqiy kompetensiyalarni baholash mezonlari.....	1308
G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna	
Формирование профессиональной компетентности будущих воспитателей дошкольных организаций на основе технологии "Сибборд": педагогические условия.....	1310
Нумонжоннова Фарангиз Комиловна	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishda tarbiyachining roli	1314
Choriyeva Xurmo Panji qizi	
Ona tili ta'limida o'quvchilarni loyiha ishi asosida baholash metodikasi	1316
Bobodo'stov Yusuf Oydin o'g'li	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini CALP yondashuvi asosida o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodik bosqichlari.....	1321
Ahmadjonova Mushtariy Bahodirjon qizi	
Shifokorlar professional karerasi resurslari va ularning obyektiv ko'rsatkichlari.....	1325
Arziqulov O'tkirbek Maxammatovich	



Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda disgrafiyani o'rganish va korreksiyalash	1329
<i>Azimova Aziza Baxtiyorovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish texnologiyalari	1333
<i>Mirzayeva Dilafuz</i>	
Maktabgacha ta'lim tizimida ta'limiy faoliyatlarni tahlilini olib borishda tarbiyachilar kompetentligini oshirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1337
<i>Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna</i>	
Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ruhiy rivojlanishi qonuniyatlari	1342
<i>Haydarov Islomjon Hatamjon o'g'li</i>	
Maktab yoshidagi bolalarda jismoniy faoliyatning sog'liq va rivojlanishga ta'siri	1346
<i>Ibragimov Xasanboy Abdusalomovich</i>	
Kimyo darslarida raqamli resurslardan (simulyator va virtual laboratoriya) foydalanish metodikasi.....	1349
<i>Ishmanova Zohida Ubaydullayevna, Valeeva Nailya Gennadiyevna</i>	
The Integration of Web Technologies in Language Education	1353
<i>Kadirova Feruza Hikmatullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'qituvchisining yangi avlod darsliklaridan foydalanish kompetensiyasi.....	1357
<i>Kosimova Gullola Mullajonovna</i>	
Evaluation of the Knowledge of a Future Education Teacher on the Methodology of Teaching and the General Features of The Theory of Education.....	1360
<i>Nishonova Munira Yakubjonovna</i>	
Zamonaviy jismoniy tarbiya sohasining muhim jihatlari va asosiy elementlari	1364
<i>Mamirova Dilorom Tavakulovna</i>	
Inklyuziv ta'lim tuzilishi ijtimoiy fenomen sifatida	1367
<i>Meliboyev Tavakkal Turg'unovich</i>	
Yangi O'zbekistonda maktab ta'limi va ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari.....	1371
<i>Mexmonov Ismat Toshpo'latovich</i>	
Pedagogning kasbiy kompetentligi va kreativ rivojlanishi.....	1375
<i>Mirsagatova Nargiza Sayfullayevna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma'naviy immunitet va milliy o'zlikni shakllantirishning zamonaviy pedagogik asoslari	1379
<i>Mo'minov Durbek No'monovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar bilan psixokorreksion ishlarni tashkil etishda maxsus terapiyalardan samarali foydalanish yo'llari	1383
<i>Niyozova Husnida Obidjon qizi, Mamarajabova Zulfiya Narboiyevna</i>	
Redefining the Teacher's Role in the Age of Artificial Intelligence: Balancing Human and Machine Intelligence in ELT	1386
<i>Nizomov Feruz Raxmon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinf ona tili darslarida matn ustida ishlashda didaktik o'yinlardan foydalanish.....	1389
<i>Nurmonova Zebo Fattaxovna</i>	
Bolalar, o'smirlar, o'spirinlarga kutubxona – axborot xizmati ko'rsatish.....	1392
<i>O'ktam Nosirov</i>	
Maktabgacha yoshdagi sensor alaliyali bolalarni eshituv nutqini o'stirish texnologiyalari.....	1398
<i>O'zganova Dildora Xolmirza qizi, Mamatkulova Lobar Tolibjonovna</i>	
Bolalar uchun tushunarli tilda yozilgan qiziqarli tarixiy hikoyalar, afsonalar va rivoyatlar ularning tasavvurini rivojlantirishda, shuningdek rasmlar va fotosuratlar haqida ma'lumot berishda muhim ahamiyatga ega	1402
<i>Qodirova Buzulayho Turg'unovna</i>	
Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini jadidchilarning pedagogik qarashlari asosida shakllantirishning didaktik ta'minoti	1405
<i>Quldashv Murodjon G'aniyevich</i>	
Ta'lim tizimida sun'iy intellektdan foydalanish etikasi va tamoyillari	1409
<i>Raximbayeva Feruza Rustamjon qizi</i>	
Tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda sinf rahbariga qo'yiladigan zamonaviy talablar	1412
<i>Saytbekova Svetlana Saylaubayevna, Kuandikova Kamila</i>	
Raqamli ta'lim muhitida talabalarning axborot almashuv va xavfsizlik madaniyatini rivojlantirish metodikasi (kompyuter injiniringi yo'nalishi misolida)	1416
<i>Solijanov Muxammad-Ali Omonillo o'g'li</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Bo'lajak ofitserlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning pedagogik-psixologik ahamiyati (ingliz tili mashg'ulotlari misolida) 1419 Sotkulova Dildora Odinabekovna	1419
	Ingliz va o'zbek tillarida zoonimik xususiyatni ifodalovchi maqollarning lingvokulturologik xususiyati 1423 Shaxlo Xalilova, Sug'diyona Sherqulova	1423
	Ona tili darslarida o'quvchilarni kreativ fikrlashga o'rgatish 1427 Voxidova Muqaddas Rasuljon qizi, Jabborova Farida	1427
	Mustaqillik davrida qizlar tarbiyasining pedagogik asoslari va zamonaviy tendensiyalar 1430 Xakimova Nargizaxon Boxadirdjonovna	1430
	Pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darsdan tashqari o'quv-tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash modeli 1436 Yunusova Diloramxon Abdumajitovna	1436
	Inklyuziv ta'lim sharoitida koxlear implantli o'quvchilarning ijtimoiy-muloqot kompetensiyalari 1440 Aripova Nodira Shuxratovna	1440
	Методы развития устной речи детей дошкольного возраста 1444 Исроилова Шохсанам Учкунжон қизи	1444
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida badiiy asarga bo'lgan qiziqishni oshirish metodikalari 1449 Qodirova Buzulayho Turg'unovna, Asqarova Mohidil Murodilla qizi	1449
	Virtual modellashtirish asosida o'quvchilarning arxitekturaviy loyihalash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari 1454 Abdullayev A'zamjon Komolxanovich	1454
	Analitik fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda tizimli yondashuvning prinsiplari 1458 Amanova Gulxayo Dilmurod qizi	1458
	O'quvchilarning savodxonlik darajasini aniqlashda xalqaro baholash (PISA) dasturlarining roli 1462 Axmedova Mastura Maxmudovna, Abdumalikova Zamira Dilmurod qizi	1462
	O'yin faoliyatida erkinlik va maqsadlilik uyg'unligi: ijodiy tafakkurni rivojlantirish omili sifatida 1465 Baxriddinova Yulduz Abror qizi	1465
	Incorporating Culture-Sensitive Communicative Tasks in EFL Courses 1468 Guzal Ismailova	1468
	Ingliz tilini o'rganish jarayonida mustaqil ta'limni to'g'ri tashkil qilish texnologiyasi 1471 Ibragimova Sevara Baxodirovna	1471
	Masofaviy ta'lim jarayonida odam anatomiyasi va fiziologiyasi fanini o'qitish: imkoniyatlar, cheklovlar va istiqbollor 1474 Jo'rayeva Xushro'ya Yaxyoxon qizi	1474
	Erta yoshda ingliz tilini o'yin va TPR metodlari asosida o'rgatish samaradorligi 1478 Kadirova Nilufar Tursinbayevna	1478
	Maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurining individual xususiyatlarini o'rganish 1481 Karayeva Y. X.	1481
	Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi 1484 Nazarova Mavluda Uktamovna, Botirova Ozoda Baxodir qizi	1484
	Boshlang'ich ta'limda darsni samarali tashkil etishda metoddan foydalanish – ijodiy fikrlashni rivojlantirish 1487 Nazarova Mohigul Akmalovna, Raxmonova Fariza Suxrobovna	1487
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda kompyuter texnologiyalarining o'rnini va ahamiyati 1493 O'rinboeva Lolaxon O'ktamovna, Nazarov Ilhomjon Usmanalievich	1493
	Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (Finlyandiya va Singapur tajribasi asosida) 1496 Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi	1496
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida integratsiyalashgan darslarni loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish 1500 Qodirova Dilshoda Abdunabiyevna	1500
	Ingliz tili mashg'ulotlarida yozuv ko'nikmalarini oshirishning metodik asoslari 1504 Qurbonova Barnoxon	1504
	Ta'lim tizimida marketing 1508 T. Seydemetov	1508
	Xorijiy tillarning o'qitilishida boshqa tillarning roli va o'qitish metodikasi 1515 Tashxodjayeva Patima Bakiyevna	1515



Integrating Social and Linguistic Skills in English Teaching Instruction is the Key to Improving Holistic Language Competence.....	1518
<i>Zaylobidinova Munira Gulomovna</i>	
Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining kimyo ta'limidagi o'rni	1523
<i>Boltayeva Shahribonu Ahmad qizi</i>	
Pedagogik oliy ta'limda kreativ loyiha va tanlovlar orqali talabalarda mustaqil fikrlash va tashabbuskorlikni rivojlantirish	1530
<i>Baxriddinova Yulduz Abror qizi</i>	
Развитие физических качеств будущих учителей физической культуры с помощью современных технологий	1533
<i>Уринов Облакул Джумаевич</i>	
O'quvchilarda tanqidiy fikrlash va nutq ravonligini rivojlantirish.....	1536
<i>Babayeva Xolida Avazmuradovna</i>	
Развитие физических качеств преподавателей физического воспитания с помощью специальных упражнений и современных технологий: научно-практические аспекты	1540
<i>Розиков Нормурод Элмонович</i>	
Развитие массового спорта с помощью технологий и их внедрение в здоровый образ жизни	1543
<i>Давулов Озодбек Каландарович</i>	
Sun'iy intellekt yordamida talabalarga ingliz tilida gapirishni o'rgatish metodikasi	1547
<i>Abdusamadova Ma'rufa Xayrullo qizi</i>	
Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" dramasi orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning pedagogik asoslari	1550
<i>Nyutonova Xilola Lochinbekovna</i>	
Murakkab matematik masalalarni yechish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida tafakkur faoliyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari	1553
<i>Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi, Alijonova Nazokat Dilmurodjon qizi</i>	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fanining o'rni	1557
<i>Yuldasheva Muxtasarxon Ikromjon qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida "ustoz-shogird" an'anasini tashkil etishning ustuvor vazifalari.....	1561
<i>Abdullayeva Sabohat G'ayratullayevna</i>	
Maktabgacha ta'limda madaniy qadriyatlarga hurmat hissini shakllantirish metodikasi.....	1565
<i>Adolat Xolmatova Muxammadjonovna</i>	
Multimodal Learning as a Pedagogical Framework for Enhancing Professional Competence in Pre-Service Teacher Education	1568
<i>Alimova Dildora Komiljon qizi</i>	
Bolalarda ijtimoiy odobni tarbiyalash xalqaro tajribalar asosida tahlil va taklif	1573
<i>Azimova Ziyoda Ergashevna, Mamirova Maxzunaxon Azamjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim tashkilotlarida malakaviy amaliyotni samarali tashkil etishni takomillashtirishning ahamiyati.....	1576
<i>Baqoyev Olim Jtayeich</i>	
Istiqbolli dorivor o'simliklar ayrim turlarining foydali xususiyatlari hamda ularni dars jarayonida o'qitish metodikasi.....	1580
<i>Dustmaxmat Tashmatovich Bakiyev, O'ktam Eshtemirovich Xo'janazarov, Nazira Ochilovna Ro'ziyev</i>	
Maktabgacha va maktab ta'limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar	1588
<i>Doniyorova Dildora Nuritdin qizi</i>	
Oliy ta'limda kompetenyaga asoslangan o'qitish modellari	1591
<i>Ernazarov Alisher Ergashevich, Chinqulova Gulmehro</i>	
Onlayn qimor o'yinlariga tobelikning iqtisodiy soha xodimlari mehnat samaradorligiga ta'siri.....	1598
<i>Fatidinova Dildora Murodjanovna</i>	
Noverbal aloqa vositalarining psixolingvistik xususiyatlari.....	1602
<i>Ismailova Oygul Sabirbayevna</i>	
Talabalarda analitik tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari va innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali takomillashtirish yo'llari	1605
<i>Jamolova Gulbanbegim Muzaffar qizi, Meliyev Ma'ruf Qiyomjonovich, Muhammadiyeva Elmera Normurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda sahnalashtirish faoliyati orqali muloqotning dolzarb muammolari, imkoniyatlari va yechimlari	1609
<i>Jumaboyeva Marhabo Shokir qizi</i>	

Oliy ta'lim transformatsiyasi sharoitida talabalarning jismoniy faolligi muammosi.....	1614
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>	
Ingliz tilida kommunikativ yondashuv asosida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish.....	1619
<i>Mamaziyojeva Orzixon Odiljon qizi</i>	
Pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda pedagogik mahoratning ahamiyati	1622
<i>Muhamadijeva Nargiza Qudratovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida pedagogik muloqot strategiyalarini rivojlantirish metodikasi	1626
<i>Murodullayeva Dilsora Ilhom qizi</i>	
Ta'limni raqamlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning ijtimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha loyiha ishlarini tashkil etish.....	1629
<i>Musayeva Umida Xolmatjonovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'shimcha xizmatlarni tashkil etish texnologiyasi.....	1633
<i>R. R. Zulfiqorov</i>	
Maktabgacha ta'limda dual ta'lim shaklini joriy etishning afzalliklari.....	1639
<i>Razoqova Hosilaoy Anvarovna</i>	
Pedagogik ta'lim sifatini oshirish maqsadida talabalarni faollashtirishning didaktik xususiyatlari	1642
<i>Ruziyev Shuxrat Islamovich</i>	
Oliy ta'lim talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash omillari.....	1647
<i>Sunnatov Zafar Ubaydullayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi tanglay kamchiliklariga ega bo'lgan (rinolaliya) bolalarning nafas va motorikasini rivojlantirishning samarali yo'llari	1651
<i>Tadjixodjeva Feruza Orifovna</i>	
The Role of Circles in Teaching English to Future Primary School Teachers.....	1654
<i>Turdikulova Bonu Otabek qizi</i>	
Tarix ta'limida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik asoslari va zamonaviy yondashuvlar.....	1657
<i>Tursunova Sevarxon Umarovna</i>	
Xilvatiy ijodi va uning o'ziga xos xususiyatlari	1661
<i>Usmonova Anora</i>	
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda xorij amaliyoti	1664
<i>Usmonova Oydin Sherali qizi</i>	
3–4-sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda mnemotexnikadan foydalanish metodikasi.....	1667
<i>Usmonova Odinxon Sobirovna</i>	
Texnologiya darslarida o'quvchilarning kreativlik qobiliyatlarini shakllantirishning nazariy asoslari	1670
<i>Xo'jayorova Munira Samadovna</i>	
O'quvchilarda ixtirochilik qobiliyatlarini kreativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish (texnologiya fani misolida)	1674
<i>Yangiboyeva Qunduzoy Shuxratovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan 6-7 yoshli bolalarni maktabga tayyorlashda ijtimoiy-hissiy rivojlanishining ahamiyati	1678
<i>Yuldasheva Feruza</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilariga geometrik shakllarni o'rgatish orqali nutqiy kompetentligini rivojlantirish ..	1681
<i>Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Qodirova Mubinxon Zuxriddin qizi</i>	
Ustoz-shogirdlik tizimida yosh o'qituvchining kasbiy malakasini oshirish mezonlari, darajalari	1684
<i>Abdulfattoxova Mavzunabegim Baxtiyorjon qizi</i>	
Периодизация процесса совершенствования воспитательной роли женщины в Центральной Азии	1688
<i>Саидова Барно Нарзуллаевна</i>	
Jinoyat protsessida tergov organi rahbari tushunchasi va uning o'ziga xos jihatlari	1693
<i>Shohruh Xalilov</i>	
Pedagogik faoliyatda kasbiy motivlarni tadqiq qilishning psixologik jihatlari	1698
<i>Amirova Nazokat Uroq qizi</i>	
Raqamli pedagogik muhitda vizual modellashtirish asosida Richpeace Cad dasturini o'qitish metodikasini takomillashtirish.....	1702
<i>Asrorova Saodat Abdullo qiz</i>	
Umumiy ta'lim maktablarida sun'iy intellektni qo'llash.....	1707
<i>Atabaeva Baxitli Jaxanshaevna</i>	



Ijtimoiy transformatsiya jarayonlarida oliy ta'lim muassasalarida profilaktik muhitni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	1710
Bayjanov Babil Bahodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ faoliyatini rivojlantirishda texnologiya fanining ahamiyati.....	1715
Bobolov Nuriddin Tojiyevich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ tafakkurni rivojlantirishda raqamli o'yin texnologiyalaridan foydalanish metodikasi.....	1718
Eshboyeva Surayyo Qaxramon qizi	
Maktabda steam loyihalari asosida o'quvchilarning ixtirochilik faoliyatini rivojlantirish.....	1721
G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Turdiyeva Barchinoy Bobirovna	
O'smirlik davrida o'ziga nisbatan ishonch hissi shakllanishida o'ziga bo'lgan munosabatning ta'siri.....	1726
G'aybullayeva Dilnoza Muxammadjon qizi	
Trigonometrik funksiyalarning qo'shish formulalarini isbotiga doir masalalar.....	1731
H. Tadjimatova	
Mamlakatimizda turizm sohasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va islohatlar (1991–2024-yillar).....	1734
Hafiza Botirova Ravshan qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda pedagogik diagnostikaning o'rni va zamonaviy usullari.....	1737
Hasanova Irodaxon Najmiddin qizi	
Ayollar uchun "shisha shift" sindromi: sabablari, oqibatlari va uni yengish strategiyasi.....	1740
Karimova Maftuna Vohidovna	
5-6 yoshlik bolalarda refleksiv tafakkur rivojlanishiga ta'sir etuvchi psixologik-pedagogik omillar.....	1744
Karshiyeva Shahnoza Turakulovna	
O'zbekiston metodik maktabida sotsiologiyaviy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili.....	1747
Madaminova Gulzira Gulamkadirovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ertaklar orqali ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish metodikasi.....	1752
Madaminova Sarvigul Anvarxo'ja qizi, Qurbonova Baxtixon	
Integratsiyalashgan ona tili fanining muammo va yechimlari.....	1755
Mamarajabova Ozoda Zokir qizi	
Maxmudxo'ja Behbudiy asarlarida ma'rifiy qadriyatlarning yoritilishi.....	1758
Qarshiyeva Iroda Baxtiyarovna	
Oliy ta'lim tizimida variativ modellashtirish asosida talabalarning kreativ faoliyatini rivojlantirish.....	1763
Quvvatova Mohira Hikmatillayevna	
Bo'lajak pedagoglarda kouching texnologiyasi asosida darslarni tashkil qilish.....	1766
S. E. Kabulova	
Ta'lim muassasalarida boshqaruv jarayonini takomillashtirishning innovatsion yo'nalishlari.....	1772
Shamuratov Marat Xalmuratovich	
Nodavlat ta'lim tashkilotlari pedagoglarining korporativ madaniyati xususiyatlari.....	1776
Sherbo'tayeva Shoxsanam Usmonovna	
Raqamli ta'lim muhitida maktabgacha ta'lim tashkilotini strategik boshqarish.....	1779
Sultonova Shohida Muxtor qizi	
Akademik litseylarda ingliz tilini o'qitishda AI dan foydalanib dars o'tishning afzalliklari.....	1783
Tajimbetova Gulmira Kenshimbaevna	
Turli yoshdagi sportchilarda uch hatlab sakrash texnikasini o'rgatish samaradorligini oshirish yo'llari.....	1786
Tashpulatov Farxad Alisherovich	
Maktabgacha ta'limda ta'lim tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etishga zamonaviy yondashuvlar.....	1791
Turdiyev Azamat Gayratovich	
Xalqaro fanlarni implementatsiya qilishning o'quv jarayonidagi texnologiyalari.....	1794
Yusupova Xabiba Iriskulovna	
Nutqiy (so'zlash) kompetensiyasini rivojlantirish yo'llari.....	1797
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Valijonova Durdonaxon Sherzodjon qizi	
Использование игровых технологий в образовательном процессе подготовки старших дошкольников к школьному обучению.....	1799
Маханова Малика Жумабек кизи	
Организация дошкольного образования в условиях цифровизации общества в ДОО.....	1803
Умурзакова Умида Наримановна	



Формирование механизмов нравственного воспитания детей дошкольного возраста на основе национальных традиций и ценностей 1807 Хуррамова Гузал Равшановна	1807
Globalashuv sharoitida yoshlarda milliy g'urur va vatanparvarlik kompetensiyasini rivojlantirish muammolari va yechimlari 1810 Norov Nodir Jo'rayevich	1810
Enigmatik matnlar asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy va mantiqiy fikrlashini rivojlantirish texnologiyasi 1814 Ibroximova Xilola To'xtasinjon qizi	1814
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari 1818 Xaqberdiyeva Sh. T.	1818
Ta'limda innovatsion jarayonlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining ahamiyati 1823 Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna	1823
Bolalarning tarbiyasiga zamonaviy multfilmlar ta'siri 1826 Choriyeva Surayyo Choriyevna, To'xtayeva Muslima Allayor qizi	1826
Talabalarda millatlararo muloqot madaniyatini tarbiyalash hamda baynalminalchilik tizimini takomillashtirish 1829 Nasiba Djumaniyozova Bekmamatovna	1829
Pedagogning kasbiy rivojlanish jarayonida raqamli texnologiyalarning o'rni 1833 Keldiyorov Manzura G'aybullayevna, Raxmatova Gulruh Hamroyevna	1833
Boshlang'ich sinf darsligida qo'llangan xalq og'zaki ijodi namunalari tadqiqiga doir 1836 D. Teshaboyev, Z. Boymatova	1836



O'ZBEKISTON METODIK MAKTABIDA SOTSIOLINGVISTIK KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH BO'YICHA OLIB BORILGAN ILMIY TADQIQOTLAR TAHLILI

Madaminova Gulzira Gulamkadirovna
p.f.f.d. (PhD), dotsent v.b.
Andijon davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi metodik maktabida chet tili o'rganuvchilarida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilinadi. K.D. Rizkulova, S.A. Ziyayeva, S.A. Alimsaidova, D.M. Sarimsaqova, A.V. Ermirzayev hamda G.G. Madaminova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar asosida sotsiolingvistik kompetensiyaning nazariy talqini, uni rivojlantirish texnologiyalari, baholash mezonlari va metodik yondashuvlari o'rganiladi. Tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan metodik modellar, til va madaniyat integratsiyasi, o'qitishda interfaol yondashuvlar, drama, mamlakatshunoslik matnlari, mustaqil ta'lim, autentik materiallar va CEFR talablariga mos kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan texnologiyalar qiyosiy tahlil qilinadi. Maqola ushbu yo'nalishdagi ilmiy maktabning umumiy rivojlanish xususiyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: sotsiolingvistik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, sotsiomadaniy yondashuv, interfaol metodlar, mamlakatshunoslik matnlari, mustaqil ta'lim, ta'limiy drama, CEFR, lingvodidaktika.

Abstract: This article analyzes scientific research devoted to the formation and development of sociolinguistic competence among foreign language learners within the methodological school of the Republic of Uzbekistan. Based on the studies conducted by K.D. Rizkulova, S.A. Ziyayeva, S.A. Alimsaidova, D.M. Sarimsaqova, A.V. Ermirzayev and G.G. Madaminova, the theoretical interpretation of sociolinguistic competence, technologies for its development, assessment criteria and methodological approaches are examined. The methodological models proposed by the researchers, integration of language and culture, interactive teaching approaches, drama techniques, country-studies texts, independent learning, authentic materials, and technologies aimed at forming competencies in accordance with CEFR requirements are comparatively analyzed. The article reveals the general developmental characteristics of the scientific school in this field.

Key words: sociolinguistic competence, communicative competence, sociocultural approach, interactive methods, country-studies texts, independent learning, educational drama, CEFR, linguodidactics.

Аннотация: В данной статье анализируются научные исследования, посвящённые формированию и развитию социолингвистической компетенции у изучающих иностранный язык в методической школе Республики Узбекистан. На основе научных изысканий К.Д. Ризкуловой, С.А. Зияевой, С.А. Алимсаидовой, Д.М. Саримсаковой, А.В. Эрмирзаева и Г.Г. Мадаминовой рассматриваются теоретическая интерпретация социолингвистической компетенции, технологии её развития, критерии оценивания и методические подходы. Сравнительно анализируются предложенные исследователями методические модели, интеграция языка и культуры, интерактивные подходы в обучении, драматизация, страноведческие тексты, самостоятельное обучение, аутентичные материалы и технологии, направленные на формирование компетенций в соответствии с требованиями CEFR. Статья раскрывает общие особенности развития научной школы в данном направлении.

Ключевые слова: социолингвистическая компетенция, коммуникативная компетенция, социокультурный подход, интерактивные методы, страноведческие тексты, самостоятельное обучение, образовательная драма, CEFR, лингводидактика.

KIRISH

O'zbekiston metodik maktabida sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirish masalasi so'nggi yillarda til o'qitish metodikasining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Globallashuv, madaniyatlararo muloqotning kengayishi, ta'lim jarayonida kommunikativ yondashuvning ustunligi sotsiolingvistik bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish zaruratini yanada kuchaytirdi. Mavjud ilmiy tadqiqotlarda til birliklarining ijtimoiy qatlamlar bilan bog'liqligi, nutqiy vaziyatga mos tilda muloqot qilish, nutq etiketi, ijtimoiy rol va muloqot kontekstini to'g'ri tanlash kabi omillar o'quvchilar kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. O'zbekiston metodik maktabida olib borilgan tadqiqotlar sotsiolingvistik kompetensiyani shakllantirishning nazariy asoslari, metodik yondashuvlari va amaliy mexanizmlarini yoritib, til o'rgatish jarayonida uni bosqichma-bosqich rivojlantirishning samarali yo'llarini taklif etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

D. Rizkulova va S. A. Ziyayevalar birinchilardan bo'lib talabalarning sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqot ishi olib bordilar. Keyinchalik S. A. Alimsaidova, D. M. Sarimsakova, A. V. Ermirzayev va G. G. Madaminovalar turli tadqiqot obyektlari doirasida sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishga doir ilmiy izlanishlar doirasini kengaytirdilar. K. D. Rizkulovaning bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan doktorlik ishida tadqiqot obyekti sifatida bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish jarayoni tanlab olingan. Mazkur tadqiqot ishi globallashuv sharoitida xalqaro ta'lim standartlariga mos ravishda bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining sotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimini takomillashtirish masalasiga qaratilgan maxsus tadqiq etilgan ish sifatida e'tirof etiladi. Tadqiqotchi sotsiolingvistik kompetensiyaga quyidagicha ta'rif beradi: "Sotsiolingvistik kompetensiya – so'zlovchining kommunikativ jarayonda ijtimoiy hayot voqea-hodisalari mazmun va mohiyati asosida o'z-o'zini va atrofdagilarni nutq texnikasi talablari asosida ijtimoiylashtirib borish demakdir" [4:64].

Olima ilmiy-nazariy manbalarga tayangan holda sotsiolingvistikada tilning uch vazifasi bor degan xulosaga keladi. Ular tayanch, etnojtimoiy va ijtimoiy. Tayanch funksiyasi – aloqa qilish; etnojtimoiy – turli etnik tillar vositasida ijtimoiy-etnik tarixiy va hozirgi davr voqea-hodisalar bayoni; ijtimoiyda esa xalqning tarixi, urf-odatlar, an'analar, boshqa xalqlarning urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlari, turmush tarzi bilan o'xshashliklari hamda farqlari, madaniyati, san'ati, adabiyoti, iqtisodiy holati, milliy boyligi, shevalari va boshqa jihatlari ifoda etiladi [4:16].

K. Rizkulova tadqiqot ishida ilmiy yangilik sifatida ingliz tili o'qituvchilari uchun sotsiolingvistik kompetensiya tipologiyasini ishlab chiqdi, davlat ta'lim standarti va CEFR talablariga muvofiq sotsiolingvistik kompetensiyani mustaqil ta'lim jarayonida rivojlantirishning lingvodidaktik tarkibini aniqlashtirdi va bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari uchun portfel, professiogramma va kompetensiya indikatorlarini ishlab chiqdi. Shuningdek, tadqiqotchi sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantiruvchi ta'lim metodlari sifatida innovatsion texnologiyalar, integrativ yondashuv (autentik materiallardan foydalanish, ta'lim jarayonini tizimlilikda tashkil etish), "Tanlov" (Selection) usuli (mualliflik metodi), "Zamonaviy sotsiolingvistika" to'garagi va mustaqil ta'limni faollashtiruvchi integrativ hamda kommunikativ metodlardan foydalangan [4:21-22].

S. A. Ziyayeva o'z ilmiy ishlarida sotsiolingvistik kompetensiyani chet tili ta'limining asosiy komponenti sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, global kommunikatsiya davrida tilni shunchaki grammatik jihatdan to'g'ri bilish yetarli emas; o'quvchi nutqiy vaziyatni, ijtimoiy rollarni, madaniy normalarni, muloqot kontekstini hisobga olgan holda muloqot qila olishi zarur [2:120].

S. A. Ziyayeva tomonidan taklif etilgan sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirish modeli quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- A) Mazmun bloki:** sotsial etiketa formulalari (greetings, requests, refusals), rasmiy va norasmiy nutq shakllari, milliy-madaniy realiyalar (customs, holidays, traditions), dialogik muloqot vaziyatlari, madaniyatlararo farqlarni solishtirish;
- B) Metodik blok:** rol o'yinlari (role play), muloqot vaziyatlari simulyatsiyasi, dialoglar asosida treninglar, sotsial vaziyatga mos so'z tanlash mashqlari, situatsion testlar (situational judgement tasks), keys-metod, madaniyatlararo taqqoslash;
- C) Baholash bloki:** kommunikativ adekvatlik, pragmatik moslik, ijtimoiy muloqot normalariga amal qilish, madaniy realiyalarni to'g'ri qo'llash, vaziyatga mos til vositalarini tanlash [2:120].

Bu mezonlar CEFR (Sociolinguistic Appropriateness) talablariga mos keladi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

S.A. Ziyayeva sotsiolingvistik kompetensiya masalasini O'zbekiston chet tili ta'limi kontekstida ilmiy asoslab bergan yetakchi tadqiqotchilardan biri bo'lib, uning ilmiy qarashlari sotsiolingvistik kompetensiyaning nazariy mazmunini ochib beradi, chet tilini o'qitishda madaniyat va til integratsiyasining ahamiyatini asoslaydi, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan samarali metodik tizimni taklif etadi va CEFR talablariga mos baholash mezonlarini ishlab chiqadi. S.A. Alimsaidovanning doktorlik dissertatsiyasi tarixiy-adabiy xarakterga ega o'lkahunoslik matnlariga tayangan holda umumta'lim maktablari o'quvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda shu yo'nalishda ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, dissertatsiyaning obyekti sifatida umumta'lim maktablarining 9–11-sinf o'quvchilariga rus tilining zamonaviy lingvistik konstruksiyalarini (aniqlik, vaqt, makon, sabab-oqibat munosabatlari) o'rgatish jarayoni olingan ^[1; 90].

Tadqiqotchi sotsiolingvistik kompetensiyani kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida talqin etadi va unga ta'rif berishda boshqa olimlarning qarashlariga tayanadi. Tadqiqotchi o'quvchilarning sotsiolingvistik kompetensiyasining shakllanish darajasini quyidagi mezonlar asosida aniqlashni qayd etgan:

- 1) dastur tomonidan taqdim etilgan materialni o'zlashtirish darajasi va turli til tuzilmalari yordamida vazifalarni bajarish qobiliyati;
- 2) nutqning to'g'riligi, aniqligi (o'rganilgan tuzilmalardan foydalanish) va dolzarbligi (nutq mavzusiga muvofiqligi);
- 3) savollarga javob berishda to'liqlik, tortishuv, ishonch, bilvosita javob berish va munozaraga tayyor bo'lish uchun ularning xabardorligidan foydalanish qobiliyati;
- 4) kommunikatsion vaziyatni hisobga olgan holda tinglovchilar bilan haqiqiy muloqotni o'rganish qobiliyati, nutqning istiqbolini yaratishda til vositalarining soni va xilma-xilligi, matndagi aniqlik, makon, zamon va sabab-oqibat munosabatlarini ochib berish qobiliyati ^[1; 23].

TAHLIL VA NATIJALAR

S.A. Alimsaidovanning tadqiqot ishi o'zga tilli guruhlarda rus tili o'rganuvchi umumta'lim maktabi o'quvchilarining sotsiolingvistik kompetensiyasini shakllantirishga bag'ishlangan ilk tadqiqotlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. D.M. Sarimsakova ham talabalarning ingliz tilidagi sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirishga bag'ishlangan tadqiqot ishini olib borgan. Tadqiqotda u obyekt sifatida mustaqil ta'lim jarayonida talabalar ingliz tilida sotsiolingvistik kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini tanlagan ^[5; 50].

Muallif sotsiolingvistik kompetensiyani shaxsning madaniyatlararo muloqotda tilni ijtimoiy-madaniy omillarni hisobga olgan holda to'g'ri qo'llash qobiliyati sifatida izohlaydi. Unga ko'ra, bu kompetensiya insonning kommunikativ ehtiyojlarini samarali qondira olish, tildan vaziyatga mos, ijtimoiy maqbul shaklda foydalanish va madaniyatlararo muloqotni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradi ^[5; 13]. Ushbu ta'rif R. Riskulova, M. Canale, M. Swain, C. Kramersch kabi tilshunos olimlarning konseptual ishlari bilan uyg'unlashadi.

Muallifning yondashuvi shundan iboratki, sotsiolingvistik kompetensiya lingvistik bilimlardan tashqari, shaxsning madaniy saviyasi, ijtimoiy tajribasi, nutqiy sezgirligi va muloqot kontekstini anglash ko'nikmalari bilan chambarchas bog'langan. Sarimsaqova sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishni shaxsning "eng yaqin rivojlanish zonasi" (L.S. Vygotskiy) konsepsiyasi bilan bog'laydi. Ushbu yondashuv asosida talabalarni mustaqil o'qish jarayonida asta-sekin murakkablashib boruvchi topshiriqlar orqali kommunikativ mahoratga yetaklovchi mashqlar tizimi ishlab chiqilgan ^[5; 12].

Sarimsaqova ishida sotsiolingvistik kompetensiyani rivojlantirishda mustaqil ta'limning roli nazariy asoslab berilgan, bosqichma-bosqich mashq tizimi "eng yaqin rivojlanish zonasi"ga tayangan holda ishlab chiqilgan, task-based, project-based, community-based va case-study metodlari integratsiyasi amaliyotga joriy etilgan, oliy ta'lim talabalari uchun "Developing Intercultural Competence in Foreign Language Teaching" nomli o'quv qo'llanma yaratilgan, baholash mezonlari (aksiologik, lingvistik, madaniy, motivatsion-reflektiv, strategik) ishlab chiqilgan. D.M. Sarimsaqovanning tadqiqoti sotsiolingvistik kompetensiyani mustaqil ta'lim jarayonida shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini chuqur tahlil qilgan bo'lib, nazariya va amaliyotni uzviy bog'lay olgani bilan e'tiborga loyiqdir. Ishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish va madaniyatlararo kommunikativ muhit yaratish orqali talabalarning nutqiy madaniyatini rivojlantirishga erishilgan.

Dissertatsiya natijalari O'zbekiston ta'lim tizimida chet tillarni o'qitish metodikasini yangilash hamda sotsiologiyaviy kompetensiyani baholash mexanizmlarini takomillashtirishda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Muallif ta'kidlaganidek, matn tanlashda autentiklik, til materiali darajasi va tematik moslik asosiy talab hisoblanadi. Ermirzayevning asosiy ilmiy natijalaridan biri – o'quvchilarning sotsiologiyaviy kompetensiyasini mamlakatshunoslikka oid matnlarni o'qish orqali rivojlantirish texnologiyasining ishlab chiqilganidir. Ushbu texnologiya didaktik tamoyillar (kommunikativlik, rivojlantiruvchanlik, tarbiyaviylik, ona tili va ingliz tilining sotsiomadaniy aloqadorligi), metodologik yondashuvlar (sotsiologiyaviy, kommunikativ, kompetensiyaviy, integrativ, shaxsga yo'naltirilgan), o'qitish bosqichlari (tayyorlov bosqichi, matnni o'qib tushunish bosqichi, matndan keyingi faoliyat bosqichi), baholash mezonlari (quyi, o'rta va yuqori darajalar), interfaol metodlar ("Contextual guessing", "Bloom's taxonomy", "Klasster", "Insert", "Sinkveyn", "Aqliy hujum") integratsiyasi asosiga qurilgan [6;17].

A. Ermirzayevning tadqiqoti ingliz tilini o'qitishda mamlakatshunoslikka oid matnlardan samarali foydalanish orqali yuqori sinf o'quvchilarining sotsiologiyaviy kompetensiyasini rivojlantirishning ilmiy asoslarini beradi. Tadqiqot nazariy va amaliy yondashuvlarning uzviyligiga tayanadi, matn bilan ishlashning samarali texnologiyasini taklif qiladi, CEFR talablarini o'quv jarayoniga integratsiya qiladi. Bu izlanish ingliz tili darslarining mazmunini boyitishda, o'quvchilarning madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligini oshirishda va zamonaviy metodik yondashuvlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

G. Madaminovning tadqiqoti umumta'lim maktablari kontekstida olib borilgan bo'lib, u 5–9-sinf o'quvchilarining ingliz tilidagi sotsiologiyaviy kompetensiyasini rivojlantirishda ta'limiy drama texnologiyasini qo'llashni taklif etgani bilan boshqa tadqiqotlardan ajralib turadi. Tadqiqotchiga ko'ra, sotsiologiyaviy kompetensiya – bu tili o'rganilayotgan jamiyatning yashash tarzi, urf-odatlar, madaniyati, hududning geografik va axloqiy xususiyatlaridan xabardor holda, ushbu jamiyatga xos standart va substandart til birliklari, sheva, noverbal harakatlar, turg'un birikmalar, turli yosh guruhlari va ijtimoiy qatlamlarga xos suhbat etiketasidan vaziyatga mos ravishda og'zaki va yozma nutqda oqilona foydalanish qobiliyatidir [3;15].

Muallif ushbu ta'rifni berishda madaniy realiyalarni bilish, urf-odat va qadriyatlardan xabardorlik, standart va substandart birliklarni farqlay olish, rasmiy va norasmiy uslublarni farqlash, noverbal xatti-harakatlarni tushunish hamda til uslublariga oid bilimlarni ajratib ko'rsatadi. Tadqiqot ishida "Ta'limiy drama" metodi "jarayonga yo'naltirilgan yondashuv" sifatida baholanadi va O'zbekiston ta'lim tizimiga mos drama texnologiyasini ishlab chiqishda pantomima, rolli ijro, improvizatsiya, simulyatsiya va ssenariy kabi turlarining ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqotchi drama texnologiyasining umumiy tuzilmasini ishlab chiqqan bo'lib, unda o'qituvchi mashg'ulotning maqsadini belgilashi, baholash mezonlarini ishlab chiqishi, ta'lim oluvchilarga tushuntirishi, rollarni taqsimlashi, ijro jarayonini kuzatishi va yakunda umumlantirilgan baho berishi nazarda tutiladi [3;16].

Shuningdek, o'quvchilarning sotsiologiyaviy kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan ta'limiy drama texnologiyasi va baholash mezonlari ishlab chiqilgan. G. Madaminova ta'limiy drama texnologiyasidan takrorlash va loyiha darslarida foydalanishni ilmiy asoslab bergan. Uning tadqiqoti ta'limiy dramalar asosida sotsiologiyaviy kompetensiyani rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini puxta asoslaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, drama texnologiyasi sotsiologiyaviy kompetensiyani shakllantirishning eng samarali metodlaridan biridir, o'quvchilar tilni nafaqat grammatika darajasida, balki madaniy va ijtimoiy kontekst bilan o'zlashtiradi, drama mashg'ulotlari ularning nutqiy faolligi, ijodkorligi va noverbal belgilarni tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi, sotsiologiyaviy moslik ingliz tilida erkin muloqotning asosiy omilidir va metodika real tajriba-sinov orqali tasdiqlangan. Tadqiqot O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ahamiyatli bo'lib, ingliz tili o'qituvchilari uchun amaliy metodik resurs sifatida qo'llanishi mumkin.

XULOSA

O'zbekiston metodik maktabida sotsiologiyaviy kompetensiyani shakllantirish bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy izlanishlar tahlili ushbu yo'nalishning izchil rivojlanayotgan mustaqil ilmiy maktabga aylanganini ko'rsatadi. K. D. Rizkulova tomonidan boshlangan metodik izlanishlar keyinchalik S. A. Ziyayeva, S. A. Alimsaidova, D. M. Sarimsaqova, A. V. Ermirzayev va G. G. Madaminova tadqiqotlari orqali yangi nazariy va amaliy qirralar bilan boyitildi. Ushbu tadqiqotlar sotsiologiyaviy kompetensiyani mohiyatini umumiy jihatdan bir xil – tilni ijtimoiy-madaniy kontekstda adekvat qo'llay olish qobiliyati sifatida tushuntirgan bo'lsa-da, har bir olim mazkur kompetensiyani shakllantirishning o'ziga xos metodik yo'llarini taklif etgan. Rizkulova sotsiologiyaviy kompetensiyani bo'lajak o'qituvchilar tayyorlovida integrativ yondashuv bilan bog'lasa, Ziyayeva uni madaniyatlararo muloqotning markaziy bo'g'ini sifatida talqin qiladi. Alimsaidova til va madaniyatni o'lkashunoslik matnlari asosida birligida o'qitishni taklif etadi. Sarimsaqova mustaqil ta'lim jarayonini kompetensiyani shakllantirishning asosiy manbaiga aylantiradi, Ermirzayev mamlakatshunoslik materiallari asosida pragmatik moslikni rivojlantiradi, Madaminova esa ta'limiy drama orqali til, madaniyat va ijtimoiy roldagi moslikni kompleks shakllantirishga erishadi.



Tadqiqotlar qiyosi shuni ko'rsatadiki, sotsiologik kompetensiyani rivojlantirishning yagona universal usuli mavjud emas; aksincha, turli yosh guruhlari, ta'lim bosqichlari va o'quv vaziyatlari uchun samarali bo'lgan ko'p asosli metodik yondashuvlar mavjud. Bu esa mazkur kompetensiyaning tabiatan murakkab, ko'p qirrali va integrativ ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi. Barcha tadqiqotlarda baholash mezonlarining ishlab chiqilgani, model va texnologiyalar yaratilib tajribada sinovdan o'tkazilgani, natijalar statistik jihatdan ishonchli ekanligi ushbu ilmiy maktabning metodik yetukligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Алимсаидова С. А. Тарихий-адабий ҳарактерга эга бўлган ўлкашуносликка оид матнлар асосида умумтаълим мактаблари ўқувчиларида социолингвистик компетенцияни шакллантириш. Педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc.) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2021. – Б.90.
2. Зияева С. А. Социолингвистическая компетенция: теоретические и методические основы. Ташкент: ТГПУ, 2015. – 120 с.
3. Madaminova G. G. O'quvchilarning sotsiologik kompetensiyalarini rivojlantirishda ta'limiy dramalarning o'rni (ingliz tili). Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Toshkent, 2023. – 56-бет.
4. Рискулова К. Д. Бўлажак инглиз тили ўқитувчилари социолингвистик компетентлигини шакллантириш тизими. Педагогика фанлари бўйича фан доктори (DSc.) диссертацияси автореферати. Тошкент, 2017. – Б.64.
5. Саримсакова Д. М. Мустақил таълим жараёнида талабаларнинг инглиз тилида социолингвистик компетенциясини ривожлантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Наманган, 2022. – Б.50.
6. Эрмирзаев А. В. Юқори синф ўқувчиларининг социолингвистик компетенциясини мамлакатшуносликка оид матнларни ўқиш орқали ривожлантириш технологияси. Педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Наманган, 2022. – Б.46.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.